# O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori

- 2021 yil 1 maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o‘ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo‘lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to‘lanadigan oylik ijara to‘lovining 50 foizi O‘zbekiston Respiblikasi Davlat byudjetidan to‘lab berilmoqda.

Bunda: ijara to‘lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida- bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari, qolgan hududlarda- bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmasligi kerak.
Ijara to‘lovini qoplash berish birinchi navbatda extiyojmand oila farzandlari, o‘rnak ko‘rsatgan va faol talabalar uchun.

Ijara huquqi asosida yashaydigan oylik ijara to‘lovi bir qismini qoplab berish qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan xisobga qo‘yilgan ko‘chmas mulk ijara shartnomasiga muvofiq ijara huquqi asosida yashaydigan ariza beruvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining faqat kunduzgi ta'lim shaklida, davlat granti yoki to'lov-kotrakti asosida tahsil olishidan qat'iy nazar, ijara huquqi asosida yashaydigan barcha talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismi belgilangan mezonlar asosida O'zbekiston Resoublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplab beriladi.

Ariza beruvchi mustaqil ravishda quyidagi holatlardan kamida birini tasdiqlovchi ma’lumot yoki hujjatlarni ilova qilgan holatda Talabalarni turar joy bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘limiga topshiradi.

-1va2-guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar.
-to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganlar.
-ka’m ta’minlangan oila farzandlari.
-vasiylik yoki xomiylik belgilangan va oilaga tarbiyaga (patronat)olingan bolalar.
- “Temir daftar”ga kiritilgan oila farzandlari.

-onasi “Ayollar daftariga” kiritilgan oila farzandlari.

-oila a’zolari “Mehnat migratsiyasi”dasturida ro‘yxatdan o‘tgnligi hamda horijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs farzandlari.

-ota-onasi ijtimoiy ximoyaga muhtoj bo‘lganligi (bandligi ta’minlanmagan, ishlash istagida bo‘lgan, daromad manbaiga ega bo‘lmagan, shu jumladan mehnat qilish qobiliyatini qisman yo‘qotgan)

-oliy ta’lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalar farzandlari bo‘lganlar.

-davlat oliy ta’lim muassasasida  o‘rnak ko‘rsatganligi va faol bo‘lganligi( xalqaro, respublika, hudud va ta’lim muassasi miqyosida o‘tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari, ko‘rik tanlovlar g‘oliblari, fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan, manaviy-ma’rifiy va sport tadbirlarida faol qatnashganligi, jamoatchilik asosida targ‘ibot guruhlaridagi volontyorlik faoliyati)

Ariza beuvchi taqdim etilgan hujjatlar va ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Ilgai talabalar va ijaraga beruvchularni o‘rtasida ijara shartnomalarni rasmiylashtirish uchun yagona davlat xizmatlari markaziga xonadon egasi borib elektron kalit olib so‘ng talabalar bilan birgalikda davlat soliq inspeksiyasidan ijara shartnomasi ro‘yxatdan o‘tkizardilar.

Hozirgi kunda ijara shartnomasini online ro‘yxatdan o‘tkazish uchun xonadon egasining shu holatdagi rasmlari kerak.



Murojaat uchun: Talabalarni turar joy bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘limi boshlig‘i Matmusayev Durbek +998930682747 Bosh mutaxasiss: Ismoilova Jamilaxon +998907560736